



XONJIZA POLIMETALL RUDA KONI

Norqulov Bobur Botir ògli¹, Qahhorov Jaloliddin Muhiddin ògli²

^{1,2} Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti
geologiya qidiruv va kon metallurgiya fakulteti "foydali qazilmalarni
qazib olish (yer osti usulida)" yònalishi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6584224>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 23- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Kinda, Xonjiza polimetall
koni, mineral resurslar,
"Olmaliq KMK",
"Giprotsvetmet"

ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Xonjiza polimetall ruda konihaqida
va bu kon joylashgan joyi olib borilgan ishlar, olib borilgan
qazilma ishlari haqida zaruriy ma'lumotlar keltirilga.*

Surxondaryo viloyatidagi kon Hisor tog'larining janubi g'arbiy qismida, Denov shadridan 90 km uzoqlikda joylashgan. Vulkonogen jinslardagi kolchedonpolimetall sanoatgenetik tipga mansub. Kinda 1968-1974-yillarda mufassal razvetka ishlari olib borilgan. Konni ilk bora T.Sh.Shoyoqubov kashf etgan. Xonjiza polimetall konining ishga tushishi va rivojlanishiga asos bo'lgan

qonun Vazirlar Mahkamasining «Xonjiza polimetall konini ochish to'g'risida» 2002-yil 17-oktabrdagi 359-sonli qarori bilan va O'zbekiston Respublikasi 1- Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2006-yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida» 2005- yil 8-noyabrdagi PQ216-sonli qarori 6-ilovaning 42-bandi asos bo'ldi. Bu banda quyidagilar keltirib o'tildi;





1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va "Olmaliq KMK" OAJning Xonjiza va Uchquloch konlari polimetall rudalari zaxirasi negizida tegishli ravishda yiliga 650 va 500 ming tonna ruda qazib chiqarish quvvatiga ega kon boyitish majmuasini qurish va 2009-yilning ikkinchi yarim yilligida sanoat ko'lamida ishlab chiqarishni tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi o'n kun muddatda Xonjiza koni foydali qazilmalar zaxirasini belgilangan tartibda "Olmaliq KMK" OAJning balansiga topshirsin.

3. "Olmaliq KMK" OAJ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining "O'zog'irneftgazkimyoyoiha" instituti Davlat Geologiya va mineral resurslar qo'mitasi bilan birgalikda ikki oy muddatda "Xonjiza va Uchquloch konlari polimetall rudalarini birgalikda to'liq qayta ishlash" loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin. Unda:

metallar eng kam chiqindiga chiqarilgan holda konlar zaxiralarini to'liq qayta ishlash yo'li bilan qimmatbaho komponentlarni maksimal ajratib olish;

Xonjiza konidagi tarkibida metall ko'p bo'lgan polimetall rudalarni Uchquloch koni rudalari bilan qo'shib qayta ishlash nazarda tutilsin.

4. Belgilansinki, import qilinadigan zarur texnologik uskunalarni xarid qilishga O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini jalb etgan holda "Olmaliq KMK" OAJning maxsus hisob varag'ida mis sotishdan tushadigan ortiqcha foydadan jamlanadigan mablag'lar mazkur loyihani amalga oshirishni

moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, "Davarxitektqurilish" qo'mitasi hamda "Olmaliq KMK" OAJ loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asosi tasdiqlanganidan so'ng ikki oy muddatda asosiy texnologik uskunalarni yetkazib berishga tanlov hujjatlarini ishlab chiqsin va tender o'tkazsin.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tanlov savdolari natijalariga ko'ra, xarid qilinadigan import texnologik uskunalar qiymatining 35 foizidan ortiq bo'lmagan hajmda mazkur loyihani amalga oshirishni 2007-yildan boshlab birgalikda moliyalashtirishni ta'minlasin.

6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi "Xonjiza va Uchquloch konlari polimetall rudalarini birgalikda to'liq qayta ishlash" loyihasini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining 2006-yilgi va keyingi yillardagi Investitsiya dasturiga kiritsin.

7. "Olmaliq KMK" OAJga zarur hollarda mazkur loyihani amalga oshirishga Rossiya Federatsiyasining "Mexanobr-injining" YoAJ, "RIVS" YoAJ (Sankt-Peterburg shahri) va "Giprotsvetmet" FGUP (Moskva shahri) kabi bazaviy institutlari va boshqa yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni kontrakt asosida jalb etishga ruxsat berilsin.

8. "Olmaliq KMK" OAJ mazkur loyihani amalga oshirish davrida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha, Xonjiza va Uchquloch konlari polimetall rudalarini sanoat ko'lamida qazib olish va qayta ishlashni ta'minlash uchun "Olmaliq KMK" OAJ tomonidan import qilinadigan materiallar, uskunalar va ular uchun O'zbekistonda



ishlab chiqarilmaydigan ehtiyot qismlar, olib kelinadigan texnik hujjatlar bojxona to'lovlari to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruv yig'implaridan tashqari) ozod etilsin 2007-yilning ikkinchi yarmida

OKMK Xonjiza polimetall konini qazish va tog'-boyitish kompleksi qurilishiga kirishildi. 2011-yilning 6-may kuni Xonjiza kon boshqarmasining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.



Bugungi kunda Xondiza kon boshqarmasi tarkibiga Xondiza shaxtasi, boyitish fabrikasi, ta'mirlash-qurilish uchastkasi, moddiy-texnika bazasi kiradi. Bu yerda polimetall rudalar qazib chiqariladi va boyitiladi. Natijada ulardan mis, rux va qo'rg'oshin konsentratlari olinadi.

Bu yil «Olmaliq KMK» AJ ning Surxondaryo viloyatida joylashgan Xonjiza kon boshqarmasi rasman ochilganligiga 10 yil told. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan, Toshkentda bo'lib o'tgan matbuot anjumanida jurnalistlar va bloggerlar kon boshqarmasining tarixi, uning faoliyati va yillar davomida erishgan yutuqlari to'g'risida batafsil so'z yuritildi.

Xonjiza konidagi qidirma ishlari natijasida aniqlangan umumiy zaxirasi 1,5 million tonna rux, 700 ming tonna qo'rg'oshin, 180 ming tonna mis va 2,3 ming tonna kumushni tashkil etadi.

Xondiza polimetall ruda konir. k. vulkanotektonik strukturada joylashgan bo'lib, asosan, andezitdatsitriolit tarkibli quyi karbon tog' jinslaridan tuzilgan.

Intruziv tog' jinslaridan granitporfir, gabbrogranit, gabbrodiorit, diabazporfir, adamelit va lamprofirlar mavjud. Kondagi eng katga ruda to'plami vize yarusining zoy (C,t—V,) va vaxshivar (C,v2S) svita yotqiziklarida (konglomerat, qumtosh, alevrolit va riolitli tuflar) joylashgan. Asosiy rudalashuv zonasi bir-biriga yaqin joylashgan, 10–20 m dan 120–150 m gacha bo'lgan qatlamsimon va linzasimon tanalardan iborat bo'lib, yalpi brekchiasimon hamda xolxolsimon rudalar majmuasidan iborat. Polimetall rudalar, asosan, galenit, sfalerit, xalkopirit minerallaridan tashkil topgan. Oz miqdorda pirit, kvarts, seritsit, dolomit, xlorid ham uchraydi. Rudada asosiy elementlar (Zn, Pb, Si) dan tashqari, sanoat ahamiyatiga ega Ai, Ag, Cd, Se, Fe va boshqa bor.

Ishlab chiqarishni texnik jihozlash, albatta, juda yaxshi. Lekin bu ishlab chiqarishlarda ishlayotgan mutaxassislarining o'rnini va ahamiyatini baholash juda mushkul. Hozirgi vaqtda kon boshqarmasi xodimlari jamoasi 930 kishidan iborat. Erishilgan yutuqlarning asosini shak-shubhasiz,



oqilona rahbarlik va xodimlarning o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi tashkil etadi. Ekspertlarning so'zlariga ko'ra, yer osti texnikasini yangilash ham Xonjiza kon boshqarmasining asosiy yutuqlari qatoriga kiradi. « Bu jarayon uch yil oldin boshlangan edi. Yil mobaynida 13 birlikda yangi uskuna: oltita avtosomasval, beshta PDM yuklash, yetkazib berish mashinasi, ikkita burg'ulash qurilmasi sotib olindi. Bularning barchasi shaxtalarning ish unimiga ancha ta'sir

ko'rsatdi» deb ta'kidlab o'tdi «Olmaliq KMK» AJ Xonjiza kon boshqarmasi direktori Botir Xo'jamurotov.

Texnikalar almashuvi va malakali mutaxassislar mehanti orqali Xonjiza bugun rivojlandi. Bugunga kelib Xonjiza polimetall konining 10 yilligini nishonlar ekanmiz, ortga nazar solsak konning bugungi kundagidek rivoj topishi uchun keep insonlarning mehanti singdi desak mubolag'a bo'lmaydi.



Xonjiza polimetall konida bugungi lunga kelib yillik ish unimi 650 ming tonnani tashkil etadi. Soatlik ish unimi 82,07 t/soat,

kunlik ish unimi 1850 tonnaga teng. Xonjiza polimetall konining yillik qazib olish foizi va hajmidagi o'zgarishlarga nazar solsak.

Xonjiza polimetall koni 2012-2021 -yillar davomida ishlab chiqarish foislarida

Foudali qazilma	2012	2020	2021
Rux	56%	75%	74,79 %
Mis	44-48 %	57%	54,69 %
Qo'rg'oshin	48 %	63 %	57,68 %
Yillik foizlarda	92,2 %	102,1 %	100,4 %



Xonjiza polimetall konining 2018-2021-yillardagi ishlab chiqarish tonnada

Foydali q	Umumiy	2018	2019	2021
x				
Rux	1,5 m t	21m930 t	29m370 t	39m161 t
Mis	700 m t	47 ming	53 ming	24m606 t
Qo'rg'oshin	180 m t	3 m 360	4 m 99	7 m 256
Kumush	2,3 m t	-----	-----	-----
		--	--	--

Bu tuzulgan yillik foiz va qazib olish jadvaliga asosan shunday xulosa kelib chiqadiki, Xonjiza polimetall koni ishlab rentabilini rivojlantirish uchun bugungi kundali yangi jaxon talablariga javob beradigon yuqori inavatsion texnologiyalar bilan taminlash, transport logistikasini

rivojlantirish, o'zaro konlar aro temir yo'l kesishmalarini o'tkazish, malakali mutaxasislarni jalb qilish va shu qatorda Jaxonning ko'zga ko'ringan kompaniyalar bilan o'zaro a'loqani yo'lga qoyish maqsadga muvofiq bo'ladi. Asosan quyidagi fikirlarni qo'shimcha qilib o'tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Б.В.Слесарев Обоснавание параметров и разработка средств повышения эффективности эксплуатации карьерных гидравлических экскаваторов. Дисс. кан. т.н. 2005. Стр-70-73.
2. Келш Х.Р. Обоснование силовых и режимных параметров копания и средств адаптации карьерных гидравлических экскаваторов к условию Якутии. Дисс. кан. т.н. 2010. Стр-40.
3. Abduazizov N. A., Tabulin AA, Filipova LG, Jurayev A. Sh. "Analysis of influence of working liquid temperature on the performance of hydraulic excavators." //International conference on innovative development of zarafshanregion: Achievements, challenges and prospects Uzbekistan. Navoi. – 2019. – C. 19-24.
4. Azamatovich A. N. et al. Simulation of the Motion of Dusted Air Flows Inside the Air Filter of a Hydraulic System of a Quarry Excavator //International Journal of Grid and Distributed Computing (IJGDC), ISSN. – 2005. – T. 4262. – C. 11-18.
5. Abduazizov N. A. et al. GIDRAVLİK EKSKAVATORNING ISHCHI SUYUQLIKLAR IFLOSLANISHI VA FILTRLASH IMKONIYATLARINI TAHLIL QILISH //Journal of Advances in Engineering Technology. – 2021. – №. 1. – C. 43-46.
6. Жураев А. Ш. АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ЭКСПЛУАТАЦИИ ГИДРАВЛИЧЕСКИХ ЭКСКАВАТОРОВ НА ЦЕНТРАЛЬНЫХ КЫЗЫЛКУМСКИХ МЕСТОРОЖДЕНИЯХ //The 4 th International scientific and practical conference—Achievements and prospects of modern scientific research||(March 7-9, 2021) Editorial EDULCP, Buenos Aires, Argentina. 2021. 306 p. – 2021. – C. 160.



7. Jurayev A. S. GIDRAVLIK EKS KAVATORLARNI RIVOJLANISHINI TAHLIL QILISH //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 286-294. 8. Жураев А. Ш. и др. Исследования гидродинамической очистки жидкостей, предложенной профессором Финкельштейном З. Л //EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY. – 2018. – С. 28-30.